

Surxondaryo viloyatida fan va innovatsiya

2024- yil uchun

- I. Ilmiy tadqiqot va ishlanmalarni bajargan tashkilotlar soni
- II. Ilmiy tadqiqot va ishlanmalarni bajargan xodimlar soni
- III. Ilmiy tadqiqot va ishlanmalariga xarajatlar
- IV. Joriy qilingan innovatsiyalar soni
- V. Yuklab jo'natilgan innovatsion tovarlar, ishlar va xizmatlar hajmi
- VI. Innovatsiyalarga xarajatlar (texnologik, marketing va tashkiliy)
- VII. Uslubiy ma'lumotlar

I. Ilmiy tadqiqot va ishlanmalarni bajargan tashkilotlar soni

Surxondaryo viloyatida 2024-yilda ilmiy tadqiqot va ishlanmalarni bajargan tashkilotlarning umumiy soni **6 tani** tashkil etdi. Ilmiy tadqiqot va ishlanmalarni bajargan tashkilotlarning eng ko'p qismi Termiz shahrida **3 tani (jamiga nisbatan ulushi 50,0 %)** va Qiziriq tumani **2 ta (33,3 %)** tashkil etgan. Ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlanmalarni bajargan tashkilotlar nisbatan kam tuman sifatida Termiz tumanida **1 ta (16,7 %)** qayd etilgan.


Ilmiy tadqiqot va ishlanmalarni bajargan tashkilotlar soni
tumanlar (shahar) kesimida taqsimlanishi
(2024-yil oxiriga, birlik)

	Umumiy soni	Jamiga nisbatan ulushi, % da
Surxondaryo viloyati	6	100,0
Termiz sh.	3	50,0
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	-	-
Angor	-	-
Bandixon	-	-
Boysun	-	-
Muzrabot	-	-
Denov	-	-
Jarqo'rg'on	-	-
Qumqo'rg'on	-	-
Qiziriq	2	33,3
Sariosiyo	-	-
Termiz	1	16,7
Uzun	-	-
Sherobod	-	-
Sho'rchi	-	-

II. Ilmiy tadqiqot va ishlanmalarni bajargan xodimlar soni

Surxondaryo viloyatida 2024-yilda ilmiy tadqiqot va ishlanmalarni bajargan xodimlarning umumiy soni **778 tani** tashkil etib, 2023-yilga nisbatan **527 taga** yoki **40,4 %** ga kamaygan.

Ilmiy tadqiqot va ishlanmalarni bajargan xodimlarning soni
(tegishli yil oxiriga, birlik)



Ilmiy tadqiqot va ishlanmalarni bajargan xodimlar sonini
tumanlar (shahar) kesimida taqsimlanishi
(2024-yil oxiriga, birlik)


	Jami	jamiga nisbatan ulushi, % da
Surxondaryo viloyati	778	100,0
Termiz sh.	680	87,4
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	-	-
Angor	-	-
Bandixon	-	-
Boysun	-	-
Muzrabot	-	-
Denov	83	10,7
Jarqo'rg'on	-	-
Qumqo'rg'on	-	-
Qiziriq	2	0,3
Sariosiyo	-	-
Termiz	13	1,6
Uzun	-	-
Sherobod	-	-
Sho'rchi	-	-

2024-yilda Ilmiy tadqiqot va ishlanmalarni bajargan xodimlarning nisbatan eng ko'p qismi Termiz shahrida – **680 tani (jamiga nisbatan ulushi 87,4 %)** va Denov tumanida – **83 tani (10,7 %)** tashkil etgan. Ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlanmalarni bajargan xodimlari nisbatan kam tumanlar sifatida Qiziriq tumani – **2 ta (0,6 %)** va Termiz tumani – **13 ta (1,6 %)** qayd etilgan.

III. Ilmiy tadqiqot va ishlanmalarga xarajatlari

Surxondaryo viloyatida 2024-yilda ilmiy tadqiqot va ishlanmalarga xarajatlar qiymati hajmi **17 163,9 mln. so'mni** tashkil etib, 2023-yilga nisbatan **9 864,8 mln. so'mga**, yoki **2,4 martaga** oshgan.

Ilmiy tadqiqot va ishlanmalarga xarajatlar qiymati
(tegishli yil oxiriga, mln. so'm)



2024- yilda ilmiy tadqiqot va ishlanmalarga xarajatlarning eng ko'p qismi Termiz shahrida – **80,5 % (13 814,7 mln. so'm)** va Termiz tumanida– **19,4 % (3 333,7 mln. so'm)** kuzatilgan bo'lsa, boshqa tumanlarga nisbatan kam ko'rsatkichlar esa Qiziriq tumanida – **0,1 % (13,4 mln. so'm)** qayd etilgan.


Ilmiy tadqiqot va ishlanmalarga xarajatlarning tumanlar (shahar) kesimida taqsimlanishi
(2024- yil oxiriga, mln. so'mda)

	Umumiy soni	Jamiga nisbatan ulushi, % da
Surxondaryo viloyati	17 163,9	100,0
Termiz sh.	13 814,7	80,5
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	-	-
Angor	-	-
Bandixon	-	-
Boysun	-	-
Muzrabot	-	-
Denov	-	-
Jarqo'rg'on	-	-
Qumqo'rg'on	-	-
Qiziriq	13,4	0,1
Sariosiyo	-	-
Termiz	3 335,7	19,4
Uzun	-	-
Sherobod	-	-
Sho'rchi	-	-

IV. Innovatsion faol korxonalar soni

2024-yilda joriy qilingan innovatsiyalar soni **338 tani** tashkil etib, ulardan **336 tasi** texnologik innovatsiyalar va **2 tasi** marketing innovatsiyalarni tashkil qildi.

Joriy qilingan innovatsiyalarning umumiy soni
(tegishli yil oxiriga, birlikda)




Tumanlar (shahar) kesimida joriy qilingan innovatsiyalar soni
(2024-yil uchun, birlikda)

	Texnologik innovatsiyalar	Marketing innovatsiyalar	Tashkiliy innovatsiyalar
Surxondaryo viloyati	336	2	-
Termiz sh.	32	-	-
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	22	-	-
Angor	8	-	-
Bandixon	31	-	-
Boysun	10	2	-
Muzrabot	10	-	-
Denov	43	-	-
Jarqo'rg'on	21	-	-
Qumqo'rg'on	28	-	-
Qiziriq	15	-	-
Sariosiyo	17	-	-
Termiz	19	-	-
Uzun	17	-	-
Sherobod	39	-	-
Sho'rchi	24	-	-

V. Yuklab jo'natilgan innovatsion tovarlar, ishlar va xizmatlar hajmi

Surxondaryo viloyatida 2024-yilda yuklab jo'natilgan innovatsion tovarlar, ishlar va xizmatlar hajmi **307 941,4 mln. so'mni** tashkil etib, 2023-yilga nisbatan **337 739,9 mln. so'mga** yoki **52,3 %** ga oshgan.

Yuklab jo'natilgan innovatsion tovarlar, ishlar va xizmatlar hajmi, *mln. so'm*



2024-yilda yuklab jo'natilgan innovatsion tovarlar, ishlar va xizmatlar hajmining eng ko'p qismi Termiz shahrida **152 530,8 mln. so'm (49,5 %)**, Muzrabot – **62 744,9 mln. so'm (20,3 %)** va Sho'rchi tumanlarida **30 625,3 mln. so'm (9,9 %)** kuzatilgan bo'lsa, boshqa tumanlarga nisbatan kam ko'rsatkichlar esa Bandixon – **66,1 mln. so'm (0,02 %)**, Qiziriq – **120,6 mln. so'm (0,03 %)** va Angor – **155,4 mln. so'm (0,05 %)** tumanlarida qayd etilgan.

Yuklab jo'natilgan innovatsion tovarlar, ishlar va xizmatlar
hajmi tumanlar (shahar) kesimida taqsimlanishi
(2024-yil oxiriga, *mln. so'mda*)

	Hajmi	Jamiga nisbatan ulushi, % da
Surxondaryo viloyati	307 941,4	100,0
Termiz sh.	20 342,0	6,6
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	3 783,7	1,2
Angor	155,4	0,05
Bandixon	66,1	0,02
Boysun	2 077,6	0,6
Muzrabot	62 744,9	20,3
Denov	19 458,5	6,3
Jarqo'rg'on	10 215,1	3,3
Qumqo'rg'on	-	-
Qiziriq	120,6	0,03
Sariosiyo	323,9	0,1
Termiz	152 530,8	49,5
Uzun	4 720,1	1,5
Sherobod	774,4	0,6
Sho'rchi	30 625,3	9,9

VI. Innovatsiyalarga xarajatlar (texnologik, marketing va tashkiliy)

2024-yilda innovatsiyalarga xarajatlar **68 440,7 mln. so'mni** tashkil etib, 2023-yilga nisbatan **190 360,4 mln. so'mga** yoki **73,6 %** ga kamayganligi qayd etildi.

2024-yilda innovatsiyalarga xarajatlarning eng ko'p qismi Denov shahrida – **17,6 %** (**12 031,8 mln. so'm**), Termiz – **13,2 %** (**9 002,3 mln. so'm**) va Jarqo'rg'on – **11,6 %** (**7 905,4 mln. so'm**) tumanlarida kuzatilgan bo'lsa, boshqa tumanlarga nisbatan kam ko'rsatkichlar esa Angor – **0,3 %** (**182,7 mln. so'm**), Sariosiyo – **0,7 %** (**500,7 mln. so'm**) va Boysun – **1,2 %** (**803,8 mln. so'm**) tumanlarida qayd etilgan.

Innovatsiyalarga xarajatlar tumanlar (shahar) kesimida taqsimlanishi
(2024-yil oxiriga, mln. so'mda)

	Jami xarajatlar	Jamiga nisbatan ulushi, % da
Surxondaryo viloyati	68 440,7	100,0
Termiz sh.	6 468,2	9,5
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	2 602,6	3,8
Angor	182,7	0,3
Bandixon	1 304,9	1,9
Boysun	803,8	1,2
Muzrabot	7 808,5	11,4
Denov	12 031,8	17,6
Jarqo'rg'on	7 905,4	11,6
Qumqo'rg'on	6 462,8	9,4
Qiziriq	945,0	1,4
Sariosiyo	500,7	0,7
Termiz	9 002,3	13,2
Uzun	5 688,9	8,3
Sherobod	3 054,7	4,5
Sho'rchi	3 678,4	5,4

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarni bajargan tashkilotlar soni.

Bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlari hajmi.

Joriy qilingan innovatsiyalar soni.

Korxona va tashkilotlarning innovatsion hajmi.

Korxona va tashkilotlarning innovatsion xarajatlari.

VII. Uslubiy ma'lumotlar

Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari (ITTKI) – bu bilimlarni oshirish maqsadida olib boriladigan va shu bilan birga insoniyat, madaniyat va jamiyat haqidagi bilimlarni oshirishga qaratilgan ijodiy faoliyatdir.

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o'rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta'minlaydi.

Ilmiy-tadqiqot xodimlari – ijodiy faoliyati tizimli ravishda ilmiy bilimlar hajmini oshirishga va ushbu bilimlarni qo'llashning yangi yo'nalishlarini topishga qaratilgan, shuningdek, ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni amalga oshirish bilan bevosita bog'liq xizmatlar ko'rsatadigan jismoniy shaxslar.

Innovatsiya – yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, xizmat, texnologiya yoki tashkiliy yechimning paydo bo'lishi va bozorda ilgari surilishiga olib keladigan ilmiy-texnik faoliyat natijasi hisoblanadi.

Innovatsiyaning minimal belgisi – bu korxona amaliyotida mahsulot, jarayon, marketing hamda tashkiliy usullar yangi yoki qisman takomillashtirilgan bo'lishi, ya'ni boshqa korxonalarda aniq bu innovatsiyani ishlatish mumkinligi, lekin ushbu korxona uchun u yangi bo'lishi lozim.

Innovatsiyalarning to'rt turi mavjud: mahsulot, jarayon, marketing va tashkiliy innovatsiyalar.

Mahsulot va jarayon innovatsiyalari texnologik innovatsiyalar hisoblanadi.

Mahsulot innovatsiyalari bu – ma'lum bir korxonada ishlab chiqarishga kiritilgan xususiyatlari yoki foydalanish usullari bo'yicha yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan mahsulotlar (tovarlar yoki xizmatlar).

Jarayon innovatsiyalari – ishlab chiqarish, logistika va mahsulotni yetkazib berishda texnologik jihatdan yangi yoki sezilarli darajada takomillashtirilgan usullarni ishlab chiqish va joriy etishni, shu jumladan barcha texnologik jarayonlarga dasturiy ta'minotni joriy etishni o'z ichiga oladi.

Marketing innovatsiyasi – yangi yoki sezilarli darajada takomillashtirilgan marketing usullarini amalga oshirish.

Tashkiliy innovatsiyalar – biznes yuritishda, ish joylarini tashkil qilishda yoki tashqi aloqalarda yangi usullarni joriy etishga qaratilgan.

Foydali havolalar:

Innovatsiya sohasida statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish bo'yicha uslubiy Nizom

Innovatsiyalarga oid ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish bo'yicha tavsiyalar (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT))

Yevropa hamjamiyati statistika byurosining uchinchi tahriri (Yevrostat), "Oslo qo'llanmasi- 2018"

Tayyorlash uchun mas'ul:
Aholi turmush darajasi va
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi

Manzil: 190108, Termiz sh.,
At-Termiziy ko'chasi, 7-uy
El. manzil: info@surstat.uz
Tel.: (55) 541-80-00, ichki: 76-00

